



UDK:(329:735(575.1))

Nurmuhammad QARSHIYEV,
O‘zMU: “Siyosatshunoslik” kafedrasi dotsenti v.b
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d (PhD) D.Ernazarov taqrizi asosida

THE MULTIPARTY SYSTEM IN CENTRAL ASIAN STATES AND ITS DEVELOPMENT PROBLEMS

Annotation

The development of party systems of world countries based on multi-party systems is considered the main factor of civil society today. The crisis of the one-party system in the 90s of the last century further expanded the geography of the multi-party system. The multiparty system has proven to be of great importance in the wide-scale provision of its interests, paying attention to even the smallest groups and strata of society.

In the Central Asian region, as the one-party system ended and the emergence of new independent states, the transition to the multi-party system was started, thereby establishing strong states with legal democratic societies. During the past period, as the countries of the region continued to develop rapidly, the multi-party system proved its optimality in experience.

Key words: Political party, multi-party system, democracy, civil society, totalitarianism, one-party system, pluralism, region, state.

МНОГОПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ПРОБЛЕМЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация

Развитие партийных систем стран мира, основанных на многопартийности, сегодня рассматривается как главный фактор развития гражданского общества. Кризис однопартийной системы в 90-х годах прошлого века еще больше расширил географию многопартийной системы. Многопартийность доказала свою важность в широком обеспечении своих интересов, уделении внимания даже самым маленьким группам и слоям общества.

В Центрально азиатском регионе с ликвидацией однопартийной системы и появлением новых независимых государств начался переход к многопартийной системе, что привело к созданию сильных государств с правовым демократическим обществом. За прошедший период, поскольку страны региона продолжали бурно развиваться, многопартийная система на опыте доказала свою оптимальность.

Ключевые слова: Политическая партия, многопартийная система, демократия, гражданское общество, тоталитаризм, однопартийная система, плюрализм, регион, государство.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMI HAMDA UNING RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Annotasiya

Jahon mamlakatlari partiyaviy tizimlari ko‘ppartiyaviylik asosida rivojlanishi bugungi kunda fuqarolik jamiyatining asosiy omili sifatida qaralib kelinmoqda. Birpartiyaviylik o‘tgan asrning 90-yillaridagi inqirozi, ko‘ppartiyaviylik tizimining geografiasini yanada kengaytirdi. Ko‘ppartiyaviylik jamiyatning eng kichik guruh va qatlamlariga ham e‘tibor qaratib, uning manfaatlarini ruyobini keng ko‘lamli ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlab kelmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida ham birpartiyaviylik tizimi barham topib yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi barobarida ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tish va shu orqali huquqiy demokratik jamiyatlarga ega kuchli davlatlarni barpo etishga kirishildi. O‘tgan davr mobaynida mintaqa mamlakatlari rivojlanishda jadal davom etar ekan, ko‘ppartiyaviylik tizimi o‘zining optimalligini tajribada isbotlab berdi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik, demokratiya, fuqarolik jamiyati, totalitarizm, birpartiyaviylik, plyuralizm, mintaq, davlat.

XX-asrning eng katta siyosiy voqyeli sifatida o‘tgan asrning 90-yillarida xalqaro siyosatda katta o‘yinchi hisoblangan sobiq sovet ittifoqining inqirozi va ushbu jarayonlarda partiya institutining ham keng ishtirok etganligini kuzatdik. Mazkur siyosiy jarayonlar siyosiy tizim va partiyaviy tizimning tanazzuli va rivoji bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana bir bor amalda isbotlab berdi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud mamlakatlarning ham inqirozli sharoitdan chiqib, mustaqilligini qo‘lga kiritishi hamda rivojlanishning yangi bosqichiga siyosiy institutlar endi tuzilgan va hali kuchli bo‘lmagan siyosiy tizim sharoitida o‘tishi, yechimini kutayotgan o‘ziga xos muammolarni ham olib keldi. Ushbu muammolardan biri sifatida jamiyat qurilishida mutlaqo yangi lekin, halqaro tajribada o‘zining samaradorligini allaqachon ko‘rsatib ulgurgan ko‘ppartiyaviylik tizimini joriy etish va shu asosda demokratiyaga

asoslangan kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish zaruriyati edi.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud deyarli barcha davlatlar mustaqillikning ilk yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy umuman barcha sohada bir-biriga taraqqiyot nuqtai nazaridan yaqin edi. Shuni ham alohida ta‘kidlashimiz kerakki, o‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz ko‘plab sohalarda mintaqada yetakchiga aylandi. Demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatining taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan islohotlarda siyosiy partiyalarning keng ko‘lamdagi ishtirokini ta‘minlashimiz lozimdir.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik asosida bugungi kunda beshta partiyaning o‘zaro raqobat muhitida faoliyat olib borayotganligi hamda davlat boshqaruvini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarda ularning ishtiroki

faollashayotganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramasdan mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalar faoliyatida e'tibor qaratish lozim bo'lgan muammolar yetarli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlangan kitobida siyosiy partiyalar faoliyatini tanqidiy tahlil qilgan holda quyidagi so'zlarni aytgan edilar: "Bugun zamonning o'zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o'zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Endi "mudrab yotgan" siyosiy partiyalar uyg'onishi lozim Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak"[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo ilmiy hamjamiyatida so'nggi yillarda siyosiy sohada tadqiqotlarga ehtiyoj ortib, insoniyatning faravon jamiyatda yashashga bo'lgan intilishi, o'zi uchun yaxlit qulay muhitni tashkil etuvchi tizimni mukammallashtirish zarurati bilan izohlash mumkin. Shunday tizimning yaxlit ko'rinishi sifatida siyosiy tizimni ko'rsatishimiz mumkin. Partiyaviy tizim esa siyosiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, tadqiqot ob'ekti sifatida eng ko'p murojaat qilinadiganidir. Xususan, mazkur yo'nalishda baxs-unozaralar, qiziqishlar markazida turuvchi ko'ppartiyaviylik alohida ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi, xususiyatlari, funksiyalari, jamiyat hayotidagi o'rniga doir asosiy nazariyalar g'arb olimlaridan M.Dyuverje, M.Veber, R.Mixels, J.Sartori, P.Meyr, K.Noyman, P.Merkl kabilarga tegishli bo'lsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar partiyaviy tizimini, xususan mintaqada ko'ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini I.Ergashyev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo'raev, M.Qirg'izboev, T.Jo'rayev, X.Odilqoriyev, Sh.G'oyibnazarov, Q.Nazarov, A.Mo'minov, A.Qodirov, B.Yakubov, D.Razzoqov, V.Qo'chqorov, Sh.Otaqulov, S.Berdiqulov, X.Axmedov, O.Tilavov, U.Bo'tayev, O.Sidorov, R.Jangazi, A.Musuraliyev, T.Ibragimov, K.Bazarbaev, B.Jumagulov, R.Abazov, M.Karibaeva kabilarda o'rganishgan.

Mira Karsibaeva tadqiqotlariga ko'ra: Markaziy Osiyoda ko'pincha partiyalar faqat hokimiyat uchun kurashish uchun mavjud degan mubolag'ali qarash mavjud. Ammo, bu jarayonlarga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, shuni hisobga olish kerakki, partiyalar, birinchi navbatda, g'oyalarning siyosiy raqobatining eng muhim quroli bo'lib, mamlakatni rivojlantirishning eng samarali yo'llarini topish uchun mavjud bo'ladi (amaldagi hukumat tomonidan taklif etilgan vazifalarni amalga oshirish) ya'ni, boshqaruv sifatini yaxshilash. Pirovardida, siyosatchilar emas, oddiy odamlar hayotining haqiqiy yaxshilanishi siyosiy partiyalar ishining sifatiga bog'liqdir[3]. Ammo, shuni ham unutmasligimiz kerak-ki, Markaziy Osiyo hududida uzoq yillar mobaynida yakka partiyaning, yakka mafkuraning hamda uning asosida markazlashgan boshqaruvning hukmronligi, davlatning barcha sohalaridagi aralashuvi sobiq ittifoq parchalangandan so'ng ham uning ta'siridan tez chiqib ketishning imkonini bermadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar bu fikrga qo'shilib, muayyan davr mobaynida bir mafkura va bir partiya hukmronlik qilganligi sababli fuqarolarda boshqa qarashlar, g'oyalar, maqsadlar bo'lishi mumkin emasligini qayd etadilar [4].

I.P.Ivanov, S.Yu.Petrenkalarining "Markaziy Osiyo mamlakatlarida prezidentlik instituti va siyosiy partiyalarning o'rni" deb nomlangan maqolasida "Markaziy Osiyo mamlakatlarida prezidentlik va partiyalar kabi siyosiy institutlarni o'rganishning dolzarbligi Markaziy Osiyo mamlakatlari allaqachon o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy o'ziga xosliklarga ega bo'lgan alohida mintaq

sifatida ajralib turishi bilan belgilanadi. Ammo, bu hududda keng qamrovli tadqiqotlar juda kam. Bu ko'proq darajada mintaqadagi siyosiy tizimlar rivojlanishining ma'lum bir bosqichidagi siyosiy tadqiqotlarga taalluqlidir. Ushbu maqolada Qozog'iston-Germaniya universitetida o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotning asosiy natijalari keltirilgan. Xususan, uchta mezon asosida qiyosiy tahlil natijalarini keltiramiz:

- 1) Prezidentlik instituti (davlat rahbari o'zgarishi);
- 2) Partiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari;
- 3) Davlat rivojlanish strategiyasining mavjudligi"[5].

Mualliflar o'z tadqiqotlarida qiyosiy tahlil va ekspert so'rovi usullaridan foydalanadi. Qiyosiy tahlil qilish uchun asosiy manbalar sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyalari; Mintaqa davlatlarining milliy rivojlanish strategiyalari; Siyosiy partiyalarning dasturlari va boshqa normativ hujjatlardan foydalanangan.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi o'ziga xos murakkabliklarga boy bo'ldi. Misol uchun O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik to'liq tom ma'noda shakllanishi uchun bir qancha partiyalar g'oyaviy o'xshashliklarini, partiyalarning oldiga qo'ygan dasturiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda birlashishiga, qayta tashkil etilishiga to'g'li keldi. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv, shuningdek, ekologik o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va yumshatish zarurati ta'sirini mintaqada davlatlari qatorida mamlakatimizda ham yangi siyosiy kuch sifatida "O'zbekiston Ekologik partiyasi"ni (2019) tuzish uchun sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishida umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan bir qatorda o'ziga xosliklar ham mavjud degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotimizda bilishning dialektik, tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, qiyosiy tahlil va boshqa umumiy ilmiy usullaridan, shuningdek, kompleks yondashuv metodologiyasi, tarixiylik yondashuvi metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy partiyalar mohiyatan maqsadi hokimiyat bo'lgan, siyosiylik bo'lgan ko'ppartiyaviylik sharoitida fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan, inson huquq va erkinliklarini targ'ib qiluvchi demokratiyaning asosiy kafili sifatida namoyon bo'ladigan institutdir.

G'arb siyosatshunos olimi P.Merklga ko'ra partiya "saylovlar va ichki jarayonlar orqali o'z yetakchilarini saylaydigan, yangi a'zolarini tartibga soladigan, ichki nizolarni hal qiladigan siyosiy tuzulma"dir[7].

Son va sifatiga qaramasdan davlatdagi barcha partiyalarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi va aloqalarining muayyan tizimi mavjuddir. Har bir davlatda partiyalar va ularning ittifoqlari o'zaro hamda siyosiy tizim bilan nisbatan barqaror aloqalar o'rnatadi. Mazkur tuzilish va aloqalar majmui "partiyaviy tizim" deb atalishi qabul qilingan[6]. Markaziy Osiyo davlatlari partiyaviy tizimi shakllanishining umumiyligi shundaki, mintaqa siyosiy partiya va davlat vakolatlari aralashib ketgan, boshqaruvni markazlashgan hamda uning markazida kuchli yakka partiyaning mavjudligi hamda uning mafkurasiga e'tiqod darajasiga ko'tarilgan siyosiy partiyaviy tizim faoliyatini boshidan kechirganligi, shuningdek, mustaqillikka erishgach mazkur mafkura ta'siridan chiqish jarayoni uzoq davom etganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Mintaqa davlatlari yakka partiya hukmron bo'lgan totalitar tuzumdan ko'ppartiyaviylikka asoslangan demokratiyaga o'tish jarayonini amalga oshirish asosida bir-biriga yaqin siyosiy madaniyat, siyosiy, huquqiy ong, iqtisodiy darajasi ham deyarli bir xil bo'lgan inqirozli sharoitda edi.

Ko'ppartiyaviy tizimi - bu bir nechta siyosiy partiyalar alohida yoki koalitsiyada davlat idoralarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tizimdir. Boshqacha qilib aytganda,

ko'ppartiyaviy tizimlar ikkidandan ortiq partiyalar vakillik qiladigan va davlat lavozimiga saylanadigan tizimdir[8]. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, mintaqada yakka partiya mafkurasining ta'siri u tugatilgan so'ng ham ko'ppartiyaviylikning tom ma'noda rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib keldi. Mazkur jarayon mintaqada aholisining siyosiy ongi, mafkuraviy yo'nalishdagi ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatni vujudga keltirdi. Ko'ppartiyaviylik mintaqa davlatlariga joriy qilingandan so'ng, ham partiya tuzilishi, uning vazifalari, boshqaruvi munosabatlarida eski yakka partiyaviy tizimning me'rosi usirlarining saqlanib kelganligini ko'rishimiz mumkin edi. Masalan, siyosiy partiyalar kadrlarini saylash (tayinlash), kadrlarni davlat boshqaruvi organlari rahbar lavozimlariga tayinlashda partiyaviyligining muhimligi kabi omillarning o'ziga xosligi uzoq vaqt saqlanib qoldi. Siyosiy partiyalarga bo'lgan munosabatni o'zgartirishda aholiga yakka partiya mafkurasiga uzoq yillar mobaynida chuqur singdirilganligi bitta omil deb qarasaq, ikkinchi omil sifatida siyosiy partiyalar faoliyatida yangi avlod kadrlarining yetishmasligi, ularning jamiyatni demokratlashtirishda aholi, elektorat bilan ishlashdagi bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi edi.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud davlatlar demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini taraqqiyotini ta'minlashda ko'ppartiyaviylikni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish orqali erishishga harakat qilmoqdalar. Shuning bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan muammolarning kuchayib borayotganligi yangi ko'rinishdagi, kuchli siyosiy partiyalarga ehtiyojni oshirmoqda. Jumladan, mintaqada ekologik muhitning yomonlashayotganligi, yaqin yillarda suv yetishmovchiligining ortishi, hududlar flora va faunasining keskin salbiy o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechimini topishda yangi innovatsiyalardan, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish masalalarini ilgari suruvchi hamda mazkur yo'nalishlar o'z dasturiy maqsadlarida ustuvorlik qilib uni faol amalga oshiruvchi "Ekologik partiya"larga yoki dasturlarida ushbu yo'nalish ustuvorlik qiluvchi siyosiy partiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ko'ppartiyaviylikning shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun nima berdi degan tabiiy savol tug'iladi. Birinchidan, eng avvalo, ko'ppartiyaviylik tizimi mintaqa davlatlari fuqarolariga imkon qadar ko'proq tanlov imkoniyatini taqdim qildi. Tanlov imkoniyatining kengayishi demokratik tamoyillarga to'la mos keladi; ikkinchidan, mintaqa davlatlarida hokimiyat almashinuvini tinch yo'l bilan amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi, ko'ppartiyaviylik hokimiyat uchun qonun doirasida kurashayotgan bir nechta partiyalarning mavjudligini va raqobatini anglatadi, shuningdek, unda hokimiyatni qo'lga kiritishning qo'pol usullaridan aksariyat hollarda voz kechiladi, chunki partiya vositasida hokimiyatga erishish imkoni keng bo'ladi; uchinchidan, ko'ppartiyaviylik mintaqada sharoitida ozchilikni tashkil etuvchi guruhlarning ham siyosiy faolligini oshishiga xizmat qildi, ular ham o'z vakillarini partiyalar yordamida boshqaruvga vakil qilib yuborishi asnosida o'z manfaatlarini ifodalash va himoyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. To'rtinchidan, oppozitsion partiyalarning vujudga kelishi sog'lom raqobatni va shu orqali rivojlanishning muqobil variantlariga ega bo'lishni ta'minladi; beshinchidan, saylovlarda g'alaba qozonib hukmron mavqeyi egallagan partiya faoliyati doimiy ravishda oppozitsion partiyalar tomonidan kuzatilib, faoliyati tanqid ostiga olinib kelinishi, uni tiyib turadi va to'g'ri islohotlar olib borishga majbur qiladi; oltinchidan, mintaqada ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi fuqarolarning davlat siyosatidan norozi qatlamlarga ham qo'shimcha imkoniyatlar taqdim qilib,

jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy zo'riqishlarning oldini olishiga xizmat qiladi; yettinchidan, saylov jarayonlarida manfaatdor tomonlar o'zaro kaolitsiyalarga birlashishi, o'zaro aloqalarni bir maqsad yo'lida mustahkamlashiga imkoniyat beradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ko'ppartiyaviylikning rivojlanish muammolariga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin. Birinchidan, ko'p yillar hukmronlik qilgan yakka partiyaviylik tizimidan me'ros qolgan ayrim salbiy omillarning tom ma'nodagi partiyalararo raqobat muhitining shakllanishiga to'siq bo'lishi ehtimolining yuqoriligi; ikkinchidan, hukumatni shakllantirishda muayyan partiyaning davlat instituti tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va bunga qarshi oppozitsion partiyalarning birlashishiga yo'l qo'ymaslik borasidagi to'siqlarning mavjudligi ehtimoli; uchinchidan, siyosiy partiyalar faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi hamda ularning davlat tomonidan moliyalashtirilib kelishi, ular rivojlanishiga xizmat qilishi barobarida mustaqil faoliyatini cheklash ehtimolini oshiradi; to'rtinchidan, mintaqa davlatlarining ayrimlarida siyosiy partiyalarning kuchli bo'linish xarakterining yuqoriligi haddan tashqari ko'p partiyalarning vujudga kelishiga hamda buning natijasida boshqaruvda xususan parlamentda qaror qabul qilishda yakkilikning yo'qolishiga olib kelib, jamiyatni parokandalikka yetaklashi ehtimolining mavjudligi; beshinchidan, mintaqada davlatlarining ayrimlarida diniy va etnik ruhdagi partiyalarning tuzilishi havfi mavjudligi millatda bo'linish vujudga kelish ehtimolini kuchaytiradi; oltinchidan, o'zaro raqobatlashayotgan partiyalar o'rtasida hokimiyat uchun kurashda nosog'lom muhitning vujudga kelishi ehtimoli mavjudligi siyosiy beqarorlikka olib kelib, barqaror taraqqiyotga to'siq sifatida ko'rish mumkin. Ammo, shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, yuqorida ko'rib o'tgan muammolarning ayrimlari siyosiy partiya mohiyatini hal etishi lozim bo'lgan muammolarga mos keladi zero, "partiyalarni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi eng asosiy belgi esa ular faoliyatining davlat hokimiyatini egallash, davlat siyosatini shakllantirish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritish uchun ochiq va aniq ifodalangan kurashga yo'naltirilganligidir"[2].

Yuqorida keltirib o'tilgan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida ko'ppartiyaviylikning rivojlanishida mavjud muammolarga qaramasdan bugungi kunda mintaqada uchun eng samarali partiyaviy tizim sifatida rivojlanishni davom etmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud davlatlarda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin ya'ni, siyosiy makon, zamon va vaziyat mustaqillikning ilk davrlarida o'xshash edi. Aholining turmush tarzi, siyosiy-huquqiy ongi va madaniyati darajasida ham katta tafovutlar bo'lmagan. Mintaqada davlatlarida partiyaviy tizim ya'ni, ko'ppartiyaviylik shakllanib bo'lib, rivojlanish bosqichiga o'tgachgina tafovutlar ko'zga tashlana boshladi. Masalan, iqtisodiyoti nisbatan rivojlanayotgan davlatlar O'zbekiston, Qozog'iston kabi davlatlarda siyosiy partiya instituti barqarorlashib, davlat boshqaruvini shakllantirishda asosiy vosita, shuningdek, aholi va davlat o'rtasidagi siyosiy ko'priq sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib taraqqiy etmoqda. Shunga qaramasdan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari partiyaviy tizimlari xususan, ko'ppartiyaviylikning oldida ham hal etilishi zarur bo'lgan yechimini kechiktirib bo'lmas muammolar borligini ko'rishimiz mumkin. Ana shunday muammolar sirasiga mintaqada ekologiyani yomonlashayotganligi, suv tanqisligi, hududlarning tez sur'atlarda cho'llashayotganligi "Ekologik" partiyalarning faoliyatini isloh qilgan holda yangi bosqichga olib chiqish va shu orqali mazkur muammolarga yechim topishni zaruratga aylantirmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Markaziy Osiyo mintasidagi davlatlarda mavjud siyosiy partiyalar o'rtasida hududga xos muammolarni oldini olish uchun o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

Mintaqa davlatlarida mavjud "Ekologik partiyalar" yoki dasturiy maqsadlarida ekologiya muammolari ustuvorlik kasb etuvchi siyosiy partiyalarning faoliyatini jonlantirish, ushbu muammolar yechimi yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar bilan chiqishga erishish;

Mintaqa davlatlarida mavjud siyosiy partiyalarning jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini qurish borasida olib borayotgan ishlarini monitoringini kuchaytirish, mazkur yo'nalishlarda ularning reytingini shakllantirish;

Mintaqa davlatlarida ko'ppartiyaviylik tizimi muammolarini kuzatib tahlil qilib havflarni oldini olish maqsadida siyosiy prognozlar bilan shug'ullanuvchi aql markazlarini ko'paytirish, mavjudlari faoliyatini kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. "Ўзбекистон" НМИУ. 2017. –Б.554.
2. Жалилов.А., Мухаммадиев.,У.Жураев.Қ., ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. Давлат бошқаруви академияси – Тошкент, 2015. 264.б.
3. Карыбаева.М., Развитие системы многопартийности в странах Центральной Азии. Центральная Азия и Кавказ №2(38), 2005.с 49.
4. Политические партии в процессе модернизации страны. Т., 2009.С.185.
5. Иванов И. П., Петренко С. Ю. Роль института президентства и политических партий в странах Центральной Азии // Наука без границ. 2018. № 8 (25). С. 33-38.
6. Ирхин Ю.В., Зотов В.Д, Зотова Л.В. "Политология" М.2000. С.269.
7. Дорофеев В.И., Родионов В.А.Основы политологии.СГУ, 1993.с.123.
8. <https://www.shivajicollege.ac.in/sPanel/uploads/econtent/9d12e503c163b69c3bb3dd29f1c40bdb.pdf>